

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

OLIY TA’LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Roziqova Gulchehra Hazratqulovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institute o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasasi pedagoqlarining gender tengligini takomillashtirishda qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Gender tengligi, ta’lim sohasida erkin va adolatli imkoniyatlar yaratish maqsadida, har bir shaxsning jinsiga qarab xulq-atvor, qarorlar va imkoniyatlarga ta’sir qiluvchi stereotiplardan voz kechishni anglatadi. Maqolada pedagogik yondashuvlarning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, gender tengligini oshirishda samarali strategiyalar, metodikalar va amaliyotchilarining roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, gender asosidagi ta’limdagi noqulayliklar va diskriminatsiyalarga qarshi kurashishda oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qituvchilarning va rahbarlarning ishtiropi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, pedagoglar, gender tengligi, pedagogik yondashuvlar, ta’lim jarayoni, gender stereotiplari, ta’limda diskriminatsiya, pedagogik strategiyalar, gender tengligini oshirish, innovatsion yondashuvlar, malaka oshirish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические подходы, используемые в повышении гендерного равенства педагогов высших учебных заведений. Гендерное равенство означает отказ от стереотипов, которые влияют на поведение, решения и возможности в зависимости от пола каждого человека, чтобы создать свободные и справедливые возможности в сфере образования. В статье рассматривается значение педагогических подходов в образовательном процессе, роль эффективных стратегий, методов и практиков в повышении гендерного равенства. Также подчеркивается участие преподавателей и руководителей высших учебных заведений в борьбе с недостатками и дискриминацией в образовании по гендерному признаку.

Ключевые слова: Высшее образование, педагоги, гендерное равенство, педагогические подходы, образовательный процесс, гендерные стереотипы, дискриминация в образовании, педагогические стратегии, повышение гендерного равенства, инновационные подходы, профессиональное развитие.

PEDAGOGICAL APPROACHES TO IMPROVING GENDER EQUALITY OF HIGHER EDUCATIONAL TEACHERS

Abstract: This article analyzes the pedagogical approaches used in improving gender equality of pedagogues of higher education institutions. Gender equality means breaking away from stereotypes that influence behavior, decisions, and opportunities based on each individual's gender, in order to create free and fair opportunities in education. The article considers the importance of pedagogical approaches in the educational process, the role of effective strategies, methods and practitioners in increasing gender equality. Also, the participation of teachers and leaders in higher education institutions in combating disadvantages and discriminations in education based on gender is emphasized.

Keyword: Higher education, pedagogues, gender equality, pedagogical approaches, educational process, gender stereotypes, discrimination in education, pedagogical strategies, increasing gender equality, innovative approaches, professional development.

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarida gender tengligini ta’minlash va uni takomillashtirish pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu sohadagi ijtimoiyadolat va teng imkoniyatlar prinsiplariga amal qilishni taqozo etadi. Pedagoglar, o‘z faoliyatida talabalar bilan ishslashda genderga oid stereotiplardan xoli bo‘lishi va ta’limda tenglikni ta’minlash uchun samarali metod va strategiyalarni qo‘llashlari zarur.

Gender tengligi – bu har bir shaxsning jinsidan qat’i nazar, teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlashni anglatadi. Ta’lim tizimi gender tengligini oshirish uchun muhim vositadir, chunki ta’lim orqali talabalar nafaqat ilm-fan sohasida, balki ijtimoiy va madaniy jabhada ham tenglikni o‘rganadilar. Oliy ta’limda gender tengligini oshirish orqali nafaqat jinsiy stereotiplardan qochish, balki jamiyatda o‘zgarishlarni yaratish ham mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Gender tengligi inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lsa-da, dunyoda gender bilan bog‘lik kamsitilish, gender bo‘yicha diskriminatsiya, huquqlarning poymol etilishi, gender asimmetriya keng tarqalgan. Gender asimmetriya ijtimoiy hayotning ayrim sohalaridaayollar va erkaklar tengsizligini anglatadi.

Masalan, dunyo bo‘yicha davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish, yirik vao‘rta biznes sohasida erkaklarning ustunlik qilishi, iqtisodiyotning kam daromadli sohalaridaayollarning ustunlik qilishi. 60% qizlar boshlang‘ich vao‘rta ta’limni o‘g‘il bolalarga qaraganda kam oladishlari haqida statistik ma’lumotlar mavjud. Umuman olganda, xotin-qizlar huquqlarining himoya qilinishi va ularning manfaatlari ifoda etilishida siyosiy hayotda va qarorlar qabul qilish jarayonidaayollarning erkaklar bilan tengma-teng ishtiroki talab etiladi. Gender tengligi insonning asosiy huquqlari tizimiga kiradi.

Mamlakatimizda bugungi kunda gendertenglikni ta’minlash hamda xotin-qizlarning ilm olib, ilm-fan taraqqiyotidao‘z hissalarini qo‘sishlariga keng imkoniyatlar yaratilyapdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ayollar huquqlarini har doim ta’minlashga lohida e’tibor beradi. Konstitutsiyaning 58-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar

teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashi belgilangan. Shuningdek, 37-moddasida esa O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi deb belgilangan. Bu esa Konstitutsiyaviy huquqdir.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, 1995-yil 6-mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘sildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to‘g‘risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to‘g‘risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalgaoshirishda teng huquqlilikni, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni kafolatlashi mustahkamlab qo‘yilgan. [1].

Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etilgan. Alovida Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etilib, u xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi ishlarning holati to‘g‘risida har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etishi belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, Adliya vazirligi tomonidan 2021-yilda “Gender-madad” elektron huquqiy maslahatchi platformasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu platformada xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan turli mavzularga oid ma’lumotlar bazasi joylashtirildi. Mavzular quyidagilardan iborat: Ayollar huquqiy himoyasi; Gender tenglik; Ayollarga imtiyozlar; Oilaviy munosabatlar; Oilaviy zo‘ravonlik; Xalqaro tashkilotlar Gender tengligiga erishish strategiyasi. Bundan tashqari, platforma orqali gender masalalar bo‘yicha huquqiy borada maslahatni onlayn chat orqali olish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarning gender tengligini takomillashtirishdagi asosiy vazifalari - ta’lim jarayonida jinsiy stereotiplarga qarshi kurashish va talabalarni genderga oid haqiqiy bilim va ma’lumotlar bilan ta’minlashdan iborat. Bu maqsadda bir nechta pedagogik yondashuvlar mavjud:

Interaktiv ta’lim metodlari: Gender tengligini ta’minlashda interaktiv ta’lim metodlari muhim ahamiyatga ega. Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari, genderga oid mavzularni muhokama qilishlari, darsda ishtirok etish orqali ularning fikrini shakllantirish va gender tengligini tushunishga yordam beradi.

Genderga oid ma’lumotlarni integratsiya qilish: Ta’lim dasturlarida gender tengligi va adolatga oid mavzularni doimiy ravishda kiritish talabalar uchun bu masalaning muhimligini anglatadi. Gender stereotiplari, diskriminatsiya va erkaklar hamda ayollarning jamiyatdagi roli haqida o‘quv materiallarini tayyorlash, ularni darsda qo‘llash orqali talabalar bu mavzularni chuqurroq o‘rganadilar.

Birinchi navbatdagi rollarni o‘zgartirish: Pedagoglar o‘zlariga genderga oid cheklovlarini o‘rnatmasdan, talabalar bilan ishlashda jinsga nisbatan yondashuvni o‘zgartirishi

zarur. O‘qituvchilarning rolini engil va noan’anaviy usullarda bajarish, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratish muhimdir.

Mentorlik va maslahatlar: Gender tengligini takomillashtirishda pedagoglar va talabalar o‘rtasida mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish ham samarali bo‘lishi mumkin. Ayol va erkak pedagoglar o‘zaro tajriba almashish, talabalarni rag‘batlantirish va ularning bilimlarini kengaytirishda yordam beradi.

Ta’lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag‘rikenglik g‘oyalari shakllanadi. Ko‘pincha ta’limdagi gender tengligi to‘g‘risidagi bahslar gender prioritetni muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma’lumot olishi uchun o‘qishga kirish imkonini berilgan bo‘lsa, demak ta’limdagi gender tenglik ta’minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta’limda gender tengligini ta’minlash – bu gender prioritetni ta’minlashdan ham kengroq bo‘lgan konsepsiyadir. Hozirgi kunda xalqaro tajribada oliy ta’lim tizimida genderga oid ta’lim berishning ikki xil yondoshuvi qo‘llanilmoqda: “Gender tizimi” tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarning gender o‘lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagilashda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Gender munosabatlarining hukmronlik ma’nolari ko‘p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ldi.

Gender tengligini ta’minlashda pedagogning rolini takomillashtirish.

Pedagoglarning gender tengligini ta’minlashdagi roli juda muhimdir. Ular talabalar bilan ishlashda adolat va tenglikni birinchi o‘rinda qo‘yishlari kerak. Shuningdek, pedagoglar o‘zlarining malakalarini oshirishi va genderga oid tushunchalarni doimiy ravishda yangilab borishlari zarur. Bu, nafaqat ta’lim sohasidagi tenglikni oshirishga, balki jamiyatda genderga oid salbiy stereotiplardan xalos bo‘lishga ham yordam beradi.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarning gender tengligini takomillashtirishdagi yondashuvtan nafaqat ta’lim jarayonini sifatli qilishga, balki jamiyatdagi gender tengligini oshirishga ham xizmat qiladi. Pedagoglar bu jarayonda asosiy rolini o‘ynab, talabalarni genderga oid stereotiplardan xoli qilib, ularga teng imkoniyatlarni yaratishlari kerak. Ushbu yondashuvtan nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy o‘zgarishlarga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, gender tengligini ta’minlashda pedagoglarning o‘rnini beqiyosdir va bu masalada har bir pedagogning faolligi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gendersizlik va ta’lim: Nazariya va amaliyat. Tashkent, 2021.
2. Pedagogik innovatsiyalar: Gender tengligi va adolatli ta’lim. Bukhara, 2022.
3. Ta’lim va gender: Amaliy metodikalar. Samarkand, 2023.

4. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 1998.
– 112 б.
5. Avloniy A. Guliston yoxud axloq. Islom odobidan mumtoz namunalar. – Toshkent,
1993. – 120 b.